

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI

Isanova Feruza Tulqinovna,

Toshkent davlat agrar universiteti, o'qituvchi

O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: isanovaferuza2909@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0281-7977>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlarining yasalish usullari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro huquq sohasiga oid terminlarning affiksatsiya, kompozitsiya va terminologik o'zlashma jarayonlari orqali hosil bo'lish xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida terminlarning yasalishida qo'llaniladigan asosiy morfologik modellar aniqlanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq terminologiyasini tizimlashtirish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish hamda terminologik tizimni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, terminologiya, termin yasalishi, affiksatsiya, kompozitsiya, o'zlashma terminlar, morfologiya, qiyosiy tahlil, derivatsiya, leksik birlik.

METHODS OF FORMATION OF INTERNATIONAL LAW TERMS IN UZBEKISTAN AND ENGLISH

Isanova Feruza Tulqinovna

Tashkent State Agrarian University, teacher

Independent researcher, Uzbekistan State University of World Languages

Annotation: This article analyzes the methods of formation of international legal terms in Uzbek and English from a linguistic perspective. The study examines the formation of legal terminology through affixation, composition, and borrowing processes. The main morphological models used in forming legal terms in both languages are identified, and their similarities and differences are comparatively analyzed. The results of the research contribute to the systematization of international legal terminology, improvement of translation practices, and further development of terminological systems.

Keywords: international law, terminology, term formation, affixation, composition, borrowing, morphology, comparative analysis, derivation, lexical units.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n16>

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish sharoitida xalqaro huquqning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning kengayishi xalqaro huquq terminologiyasining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro huquq sohasida qo'llaniladigan terminlarning to'g'ri shakllanishi va aniq qo'llanishi huquqiy hujjatlarning mazmunini to'g'ri tushunish hamda tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Terminologiya tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lib, unda turli sohalarga oid maxsus leksik birliklarning shakllanishi, rivojlanishi va qo'llanishi o'rganiladi. Xalqaro huquq terminologiyasi esa o'zining murakkab tuzilishi va ko'p komponentli shakllari bilan ajralib turadi. Ushbu terminlar ko'pincha affiksatsiya, kompozitsiya va o'zlashma jarayonlari orqali hosil bo'ladi.

O'zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning morfologik tizimlari ham bir-biridan farq qiladi. Ingliz tili analitik tillar guruhiga kirib, unda prefiks va suffikslar yordamida yangi terminlar hosil qilish keng tarqalgan. O'zbek tili esa agglutinatив tillar guruhiga mansub bo'lib, unda asosan suffikslar yordamida yangi terminlar hosil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi xalqaro huquq terminlarining yasalish usullarini qiyosiy o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Bugungi kunda xalqaro huquq hujjatlari tarjimasida terminlarning to'g'ri qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli terminlarning yasalish mexanizmlarini o'rganish amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlarining yasalish usullarini aniqlash hamda ularning o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- xalqaro huquq terminlarining asosiy yasalish usullarini aniqlash;
- ingliz tilida xalqaro huquq terminlarining yasalish modellarini o'rganish;
- o'zbek tilida xalqaro huquq terminlarining yasalish usullarini tahlil qilish;
- ikki til terminlarining yasalish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlarining yasalish usullari tizimli ravishda qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning asosiy morfologik modellariga ilmiy tavsif beriladi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlarining yasalish usullarini qiyosiy jihatdan o'rganishga asoslangan bo'lib, lingvistik tahlilning zamonaviy metodlariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida terminlarning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, ularning yasalish mexanizmlarini tahlil qilish hamda ikki til o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsad qilingan.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillarida qo'llaniladigan xalqaro huquq terminlari tanlab olindi. Tadqiqot materiali sifatida xalqaro huquq bo'yicha ilmiy adabiyotlar, terminologik lug'atlar, huquqiy hujjatlar hamda akademik manbalardan foydalanildi. Jami 120 dan ortiq xalqaro huquq terminlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Morfologik tahlil metodi.

Ushbu metod terminlarning ichki tuzilishini, ya'ni o'zak va qo'shimchalardan tashkil topganligini aniqlashga xizmat qildi. Har bir terminning yasalish mexanizmi morfologik jihatdan tahlil qilindi.

2. Qiyosiy tahlil metodi.

Mazkur metod ingliz va o'zbek tillaridagi terminlarning yasalish usullarini o'zaro solishtirish va ularning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

3. Strukturaviy tahlil metodi.

Terminlarning tuzilishi tizimli ravishda o'rganilib, ularning model shakllari aniqlashtirildi.

4. Tasniflash metodi.

Xalqaro huquq terminlari yasalish usullariga ko'ra guruhlariga ajratildi: affiksatsiya, kompozitsiya va o'zlashma terminlar.

NATIJALAR

Xalqaro huquq terminlarining yasash usullari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlari quyidagi asosiy usullar orqali yasaladi:

1. Affiksatsiya (qo'shimchalar orqali yasash)
2. Kompozitsiya (so'z qo'shish orqali yasash)
3. O'zlashma (boshqa tillardan kirib kelgan terminlar)

1. Affiksatsiya usuli

Affiksatsiya xalqaro huquq terminlarining eng keng tarqalgan yasash usullaridan biridir.

Ingliz tilida:

Ingliz tilida prefiks va suffikslar juda faol qo'llaniladi.

Misollar:

- legal → legality (suffiks -ity)
- judge → judicial (suffiks -ial)
- legislate → legislation (suffiks -tion)
- nation → international (prefiks inter-)
- comply → non-compliance (prefiks non-)

Bu misollar ingliz tilida affiksatsiya orqali yangi terminlar hosil bo'lishini ko'rsatadi.

O'zbek tilida:

O'zbek tilida asosan suffiksatsiya ustunlik qiladi.

Misollar:

- huquq → huquqiy (-iy)
- qonun → qonuniylik (-iy + -lik)
- davlat → davlatchilik (-chilik)
- majbur → majburiy (-iy)
- huquq → huquqshunos (-shunos)

O'zbek tilida prefiks deyarli qo'llanilmaydi, bu tilning agglutinativ xususiyati bilan bog'liq.

2. Kompozitsiya usuli (qo'shma so'zlar)

Kompozitsiya xalqaro huquq terminlarining eng muhim yasash usullaridan biridir.

Ingliz tilida:

- international law
- human rights
- peace treaty
- legal system
- state responsibility
- criminal law

Bu terminlar ikki yoki undan ortiq so'zning birikishi orqali hosil bo'lgan.

O'zbek tilida:

- xalqaro huquq
- inson huquqlari
- tinchlik shartnomasi
- davlat javobgarligi
- huquq tizimi

- sud organlari

O'zbek tilida ham kompozitsiya juda faol ishlatiladi.

3. O'zlashma terminlar

Xalqaro huquq terminlarining katta qismi lotin va ingliz tillaridan kirib kelgan.

Ingliz tilida:

- jurisdiction
- arbitration
- ratification
- constitution
- immunity

O'zbek tilida:

- konstitutsiya
- ratifikatsiya
- arbitraj
- immunitet
- yurisdiksiya

Bu terminlar xalqaro huquqning global xarakterini ko'rsatadi.

Qiyosiy natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Ingliz tilida affiksatsiya (prefiks + suffiks) juda faol
- O'zbek tilida suffiksatsiya ustun
- Har ikkala tilda kompozitsiya keng qo'llaniladi
- O'zlashma terminlar ikkala til uchun umumiy manbaga ega
- Ingliz tili ko'proq qisqa va analitik tuzilishga ega
- O'zbek tili esa agglutinatив va kengayuvchi tuzilishga ega

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlarining yasash usullari umumiy tipologik asosga ega bo'lsa-da, ularning morfologik amalga oshishi sezilarli darajada farqlanadi. Bu farqlar har ikki tilning strukturaviy xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Ingliz tilida affiksatsiya jarayoni juda faol bo'lib, ayniqsa prefikslar va suffikslar orqali yangi terminlar hosil qilish keng tarqalgan. Bu holat ingliz tilining analitik tuzilishi bilan izohlanadi. Masalan, "international", "non-compliance", "ratification" kabi terminlar murakkab huquqiy tushunchalarni bitta so'z orqali ifodalash imkonini beradi.

O'zbek tilida esa affiksatsiya asosan suffikslar orqali amalga oshiriladi. "-iy", "-lik", "-chi", "-shunos" kabi qo'shimchalar termin yasashda asosiy vosita hisoblanadi. Bu holat o'zbek tilining agglutinatив tabiatiga mos keladi. Masalan, "huquqiy", "qonuniylik", "huquqshunos" kabi terminlar shu jarayon orqali hosil bo'ladi.

Kompozitsiya (qo'shma so'zlar) har ikkala tilda ham juda faol yasash usuli hisoblanadi. Xususan, xalqaro huquq sohasida murakkab tushunchalarni ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq leksik birliklarning birikishi keng qo'llaniladi. Ingliz tilida "human rights", "peace treaty", "legal system" kabi terminlar, o'zbek tilida esa "inson huquqlari", "tinchlik shartnomasi", "davlat javobgarligi" kabi birliklar bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, o'zlashma terminlar xalqaro huquq tizimining universal xarakterini namoyon etadi. Lotin, fransuz va ingliz tillaridan kirib kelgan terminlar har ikkala tilda ham deyarli bir xil shaklda qo'llaniladi. Bu esa xalqaro huquq terminologiyasining global integratsiyalashuv jarayonini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, terminlarning yasash usullarini to'g'ri tushunish tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, huquqiy matnlarni tarjima qilishda morfologik tahlil aniq va to'g'ri ekvivalentlarni tanlash imkonini beradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminlarining yasash usullarini qiyosiy jihatdan o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot davomida affiksatsiya, kompozitsiya va o'zlashma usullar termin yasashning asosiy vositalari ekanligi aniqlandi.

Ingliz tilida prefiksatsiya va suffiksatsiya orqali termin yasash juda faol bo'lib, bu tilning analitik tuzilishi bilan izohlanadi. O'zbek tilida esa suffiksatsiya asosiy o'rin egallaydi va bu uning agglutinatив xususiyatini aks ettiradi.

Kompozitsiya usuli har ikkala tilda ham keng qo'llaniladi va xalqaro huquq terminologiyasining muhim qismini tashkil etadi. O'zlashma terminlar esa xalqaro huquq tizimining global xarakterini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro huquq terminlarining yasash usullari o'xshash bo'lsa-da, ularning morfologik ifodalanish shakllari sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu farqlar har bir tilning grammatik va tipologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro huquq terminologiyasini tizimlashtirish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish hamda lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Komissarov V.N. Teoriya perevoda. – Moskva: Vysshaya Shkola, 1990.
2. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykovedenie. – Moskva, 2000.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
4. Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2008.
5. Tursunov U., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi. – Toshkent, 1992.
6. Isanova, Feruza (2025) INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (3). pp. 292-297. ISSN 2181-1342// <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/466>
7. Isanova, Feruza (2025) INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DIAKRON TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (1s). pp. 173-180. ISSN 2181-1342 // <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/373>
8. Isanova, Feruza (2023) O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual

- Problems of Humanities and Social Sciences., 3 (7). pp. 151-160. ISSN 2181-1342 // <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/519>
9. Isanova, Feruza (2022) ИНГЛИЗ ТИЛИДА ХАЛКАРО ХУКУК СОХАСИГА ОИДТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6 (3). pp. 44-49. ISSN 2181-1342 // <http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/520>
 10. Isanova, F. (2026). THE FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF LAW IN ENGLISH. В ИЛМИЯРХИВ. <https://ilmiyarxiv.com/index.php/preprint/preprint/view/26>
 11. Isanova, F. (2026). THE HISTORICAL ORIGIN AND FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF INTERNATIONAL LAW IN THE UZBEK LANGUAGE. LigvoScience.Uz: Current Issues in Linguistics and Cultural Studies, 2(3), 13-18. <https://doi.org/10.47390/LS2025V2I3Y2026N02>
 12. Isanova, Feruza (2021) FEATURES OF TRANSLATION IN AGRONOMIC TERMINOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕК, 3 (16). pp. 248-252. ISSN УДК 37 <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2080>.
 13. Azizova, Dilafruz and Alimova, Kamola and Isanova, Feruza and Otamurodova, Salomat and Turdieva, Komila (2025) The Usage of International Terms in English. TELEMATIQUE, 24 (1). pp. 868-874. ISSN 1856-4194. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2081>.
 14. Isanova, Feruza (2021) ФАКТОР НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. Материалы республиканской научно-практической конференции «СТРАНОВЕДЕНИЕ: ЯЗЫК, ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА». pp. 34-38. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2086>.
 15. Isanova, Feruza (2020) ENGLISH AS AN INTERNATIONAL COMMUNICATION LANGUAGE. «2020 йил - Илм-маърифат ва ракамли иктисодиётни ривожлантириш йили»га багишланган профессор-укитувчи ва ёш олимларнинг III - масофавий илмий- (3). pp. 1712-1713. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2087>.
 16. Исанова, Феруза (2020) НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ К ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ АГРАРНОГО ВУЗА. «2020 йил - Илм-маърифат ва ракамли иктисодиётни ривожлантириш йили»га багишланган профессор-укитувчи ва ёш олимларнинг III - масофавий илмий- (3). pp. 1714-1715. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2088>.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.